

Fan platformasi

Fanning to'liq nomi: **RAQAMLI BIZNESNI BOSHQARISH**

Fan kodi: RBB2306

Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):6

davomiyligi: semester 3

Kafedra: Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti

Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: **Menejment (kimyo va oziq – ovqat sanoati)**

Fan ma'ruza o'qituvchisi: Jalilov Sh.Q.

Fanga ajratilgan umumiy soatlar:180

Email: Jalilov Sh.Q gmail.com

Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisilari: Jalilov Sh.Q

Prerekvizitlar:

Fanning qisqacha bayoni: "Raqamli biznesni boshqarish" fani ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi va magistraturaning "Menejment (kimyo va oziq – ovqat sanoati)" mutaxassisligida o'qitiladi. Mazkur fan boshqa menejment fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o'z rivojida aniq yo'nalishdagi iqtisodiy fanlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Fanning maqsadi: talabalarga biznes jarayonlarini raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar mohiyatini anglab yetish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Fanning asosiy vazifalari talabalarda raqamli biznesni bosqarish tizimini takomillashtirish, elektron biznes jarayonlarini samarali tashkil etish yuzasidan samarali qarorlar qabul qilish, axborot tizimlaridan foydalangan holda avtomatlashtirilgan biznes-jarayonlarning, tijorat ma'lumotlar almashinuvi va tijorat operatsiyalarining biznes-modelidan, internet texnologiyalaridan foydalanadigan kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yishning ilmiy negizini yaratish vazifalarini bajaradi.

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Shuningdek, mavzudan kelib chiqib dars mashg'uloti mehmonxonada sayyor dars tarzida olib boriladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Raqamli biznesni boshqarish asoslari.	2	4	10
2	Elektron savdo (internet savdo)ning rivojlanish xususiyatlari.	2	4	10
3	Raqamli iqtisodiyotda biznesni boshqarishning xususiyatlari.	2	4	10
4	Mobil texnologiyalar.	2	4	10
5	Biznesda fikrlash dizayni.	2	4	10
6	Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari.	2	4	10
7	Biznes crowdsorsing va crowdfundingning yangi imkoniyatlari.	2	6	12
8	Zamonaviy elektron tijorat bozori xususiyatlari.	2	6	12
9	Elektron hukumat va xizmatlar sohasini raqamlashtirish xususiyatlari	4	6	12
10	Sanoatda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish."SANOAT-4.0" konsepsiyasi	4	6	12
Jami		24	48	108

Asosiy adabiyotlar

1. S.S.Gulyamov, R.X.Erhashev, S.N.Xamrayeva, Raqamli iqtisodiyot – (o'quv qo'llanma),-T.:, 2020. -377 b.
2. Генкин А., Михеев А. Блокчейн: Как это работает и что ждет нас завтра. М.: Альпина Паблишер, 2018. - 592 с
3. Лапидус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. — М. : ИНФРА-М, 2019.
4. Хау Дж. Краудсорсинг. Коллективный разум как инструмент развития бизнеса. М.: «Альпина Паблишер», 2012

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Балабанов, И. Т. Электронная коммерция / И.Т. Балабанов. - М.: Питер,2015. - 335 с. 53.
2. Бетелин В.Б. Цифровая экономика: навязанные приоритеты и реальные вызовы// Государственный аудит М.2107 - No3
3. Добрынин, А.П. Цифровая экономика – различные пути к эффективному применению технологий (BIM, PLM, CAD, IOT, Smart City, BIG DATA и другие). М.:2016

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
2. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
3. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
4. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumatlari milliy bazasi.

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Seshanba	10.00 – 12.00	310